



PREZIDENTLIK INSTUTI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Kalimbetov Dilmurod Qahramon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi Toshkent davlat yuridik
universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6625830>

ABSTRACT

Mazkur maqolada davlat boshqaruvining demokratlashtirishdagi prezidentlik institutining tutgan o'rni va ahamiyati, prezident faoliyatining tizimli va samarali mexanizmini yaratish masalalarini tahlil etishga va ularni huquqiy va amaliy jihatdan takomillashtirishga bag'ishlangan. Maqolada shuningdek, prezident vakolatlarini optimallashtirish, bu bo'yicha xorij mamlakatlari tajribasiga asoslangan va amaliy ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqilgan.

Received: 28th May 2022
Accepted: 02nd June 2022
Online: 05th June 2022

KEY WORDS

prezidentlik instituti,
vakolatlarni
optimallashtirish,
prezident faoliyati, davlat
boshqaruvini
demokratlashtirish,
demokratiya

Turli xorijiy mamlakatlarda prezidentlik institutining davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni har xil bo'lib, ular bir-birlaridan qator jihatlari bilan ajralib turadi. Avvalo, shuni qayd etib o'tish lozimki, davlat boshqaruv tizimining asosan, ikki turi mavjud bo'lib, ular monarxiya va respublika shakllaridir. Davlat boshqaruvining monarxiya shaklida davlat boshlig'i monarx (qirol, qirolicha, imperator va boshqalar) bo'ladi. Davlat boshqaruvining bunday shakliga Buyuk Britaniya, Yaponiya, Ispaniya, Niderlandiya, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarni kiritish mumkin. Davlat boshqaruvining respublika shaklida Prezident davlat boshlig'i hisoblanadi. Ushbu boshqaruv shaklidan kelib chiqib, mamlakat hayotida Prezidentning tutgan o'rni va roli turlicha ekanligini ko'rish mumkin.

Davlat boshqaruvi respublika shaklining quyidagi ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularga:

- birinchidan, Prezidentlik respublikasi;
- ikkinchidan, Parlamentar respublika;

– uchinchidan, Aralash respublikalar kiradi. Prezidentlik respublikasida davlat boshlig'i prezident bo'lib, uning mamlakat hayotidagi o'rni parlamentar va aralash respublika boshqaruv shaklidagiga qaraganda ahamiyatliroq ekani ko'zga tashlanadi.

Prezidentlik respublikasi hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan davlat boshqaruv shakli hisoblanadi. Prezidentlik respublikalarida Prezidentning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini, vakolatlarini, ya'ni xalq tomonidan saylanishi, davlat boshlig'i bo'lishi, hukumatni shakllantirishi, ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanligi, ichki va tashqi siyosatni mustaqil yuritishi, veto huquqiga egaligi, davlatning yuqori organlariga mansabdor shaxslarni tayinlashi, oliy bosh qo'mondon bo'lishi va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Hozirda prezidentlik respublikasi mavjud bo'lgan mamlakatlarga Braziliya, Venesuela, Kolumbiya, Fillipin, Koreya,



Amerika Qo'shma Shtatlarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat boshlig'ining o'rni va vakolatlarini ko'rib chiqaylik. AQSHda Prezident va vitse-prezident birgalikda 4 yil muddatga saylanib, ular bu mansabda ikki muddatdan ortiq o'tirishlari mumkin emas (faqat istisno tariqasida Ikkinchi jahon urushi davrida F.Ruzvelt to'rt marta Prezident etib saylangan). Prezident davlat boshlig'i bo'lishi bilan bir qatorda ijroiya hokimiyatning boshlig'i bo'lib ham hisoblanadi. Prezident Parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarni (10 kun muddat ichida) imzolashga yoki ularni o'zining e'tirozlari bilan rad etish huquqiga ega.

Prezident Parlamentning yuqori palatasi bo'lgan Senat bilan kelishgan holda Yuqori lavozimlarga mansabdor shaxslarni tayinlaydi. AQSH Prezidentining tashqi siyosatni olib borishdagi vakolatlari keng bo'lib, u elchilarni, boshqa vakil qilingan shaxslarni, konsullarni tayinlash va chaqirib olish, xalqaro shartnomalar tuzish, xalqaro darajadagi masalalarni hal qilish kabi huquqlarga ega.

AQSH Konstitutsiyasiga asosan, Prezident hech qanday organga bo'ysunmaydi. U o'z lavozimidan faqat impichment orqali chetlashtirilishi mumkin. Yuqoridagilar bilan bir qatorda AQSH Prezidenti ijroiya hokimiyat boshlig'i hisoblanadi. Shuni qayd etish lozimki, AQSHda premyer-ministr (bosh vazir) lavozimi yo'q. Prezident hukumat a'zolarini hamda vazirlarni Senat (Parlamentning yuqori palatasi) bilan kelishgan holda tayinlaydi.

AQSH Konstitutsiyasiga ko'ra prezidentlikka nomzod uchun quyidagi talabalar qo'yiladi:

Nomzod AQSHda tug'ilgan mamlakat fuqarosi bo'lishi, 35 yoshdan kichik bo'lmasligi hamda kamida 14 yil AQSH hududida muqim yashagan bo'lishi zarur.

AQSHda prezidentlik saylovlari bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich: Dastlabki saylovlar va yig'ilishlar

AQSHning har bir fuqarosida davlat boshqaruvi haqida turli xil g'oya va qarashlar mavjud. Shu sababli siyosiy partiyalarga a'zo bo'lgan har qanday kishi o'z nomzodini ilgari surishi mumkin. AQSHda asosiy saylovlardan oldin, partiyalarning mahalliy kengashlarida «Partiyaning saylovoldi yig'ilishlari» – Caucuses o'tkaziladi. Ularda nomzodlikka da'vogarlar ichidan eng yaxshilari tanlab olinib keyingi bosqichga tavsiya etiladi. Keyingi bosqich «Boshlang'ich saylovlar» – «praymeriz» deb ataladi va har bir shtatda o'tkaziladi. Keyingi bosqichda partiya nomidan ishtirok etish uchun eng yaxshi nomzodlar partiya faollari tomonidan saylanadi.

2-bosqich: Milliy konvensiyalar

Bu bosqichda partiyalar «Umummilliy saylov»da ishtirok etadigan bir nafar nomzodni tanlab olish uchun «Milliy konvensiyalar» o'tkazadilar. Prezidentlik saylovida ishtirok etish uchun tanlangan nomzod mazkur yig'ilishda «vitse-prezident»lik uchun o'z nomzodini tanlaydi. Shuning bilan partiyalarning prezidentlik uchun nomzod tanlash bosqichi tugaydi.

3-bosqich: Umummilliy saylovlar

Bu bosqichda, nomzodlar saylovoldi tashviqot ishlarini olib borishadi, o'z elektorati bilan uchrashuvlar o'tkazadi va saylovchilarning qo'lloviga erishishga harakat qilishadi.

Bu bosqichda saylovchilar bir nafar prezident va bir nafar vitse-prezident



uchun ovoz berishadi. Shu bilan birgalikda saylovchilarning irodasini ifoda etadigan, asosiy saylovlarda ishtirok etuvchi

saylovchilar guruhi - kollegiyalarga ham ovoz berishadi.

References:

- 1.1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston. 2017. 58-b.
- 1.2. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т. "Ўзбекистон", 2018. 2-том, 110 б.
- 1.3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. -T.: "O'zbekiston", 1998. -B. 244-245-b.
- 1.4. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-j.- T.: O'zbekiston, 2003. 28-29-b.
- 1.1. "Abbosxo'jaev SH.A. Demokratik davlat qurish sharoitida prezidentlik institutining huquqiy asoslari: Yurid. fan, nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 24 b.
- 1.2. Alimov B. B. O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati tizimida prezident va vazirlar mahkamasining munosabatlari – 2017.
- 1.3. Mirakulov M. M. Davlat hokimiyati tizimida prezidentlik instituti: qiyosiy-huquqiy tahlil – 2012.
- 1.4. Do'stov U. R. Yevropa ittifoqi integratsiyasi sharoitida Fransiyada prezidentlik instituti rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari – 2009.
- 1.5. Miraqulov M. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi (qiyosiy-huquqiy tahlil). – 2016.
- 1.6. O.T.Xusanov. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy-texnik instituti, 2019. 873-bet.